

**LIRIK JANR HAQIDA BA'ZI MULOHAZALAR****ВОЗЗРЕНИЯ О ЛИРИЧЕСКОМ ЖАНРЕ****SOME FEEDBACK ABOUT LYRICAL GENRE****Yo'Ichiyev Qahhor Vahobovich<sup>1</sup>****<sup>1</sup>Yo'Ichiyev Qahhor Vahobovich**

– filologiya fanlari doktori.

**Annotatsiya**

Maqolada lirik she'rlarni janrlarga ajratish muammosi haqida so'z yuretiladi. Bunda I.Sulton, B.Sarimsoqov, H.Umurov, D.Quronov tasnif tamoyillariga tayangan holda lirik janrlarning shaklanishidagi xilma xillik hamda janr yuzaga kelishda topoxronos ahamiyatiga alohida diqqat qilgan.

**Аннотация**

В статье рассматривается проблема жанрового деления лирических стихотворений. При этом, основываясь на принципах классификации лирических жанров И.Султана, Б.Саримсакова, Х.Умуроева, Д.Курунова, автор уделяет особое внимание топохроносу, как важному средству возникновения видового разнообразия и жанрового деления лирики.

**Abstract**

The article discusses the problem of dividing lyrical poems into genres. At the same time, I. Sultan, B.Sarimsoqov, H.Umurov, D.Quronov, based on the principles of classification, paid special attention to the diversity in the formation of lyrical genres and the role of topography in the formation of the genre.

**Kalit so'z:** sub'ektivlik, janr, tasnif, tamoyil, obraz, kechinma, makon va vaqt, misralar miqdori, uchlik janri, mazmuniy kompozitsiya.

**Ключевые слова:** субъективность, жанр, классификация, принцип, образ, опыт, пространство и время, количество стихов, жанр троицы, содержательная композиция.

**Key words:** subjectivity, genre, classification, principle, image, experience, space and time, number of verses, trinity genre, meaningful composition.

**I.Kirish.**

Lirik janr tamoyili va tasnifi turlichcha bo'lib, turfalik lirik asarlarni janrga ajratishda qiyinchilik keltirib chiqaradi. Avvalo, badiiy asarlarni janrlarga ajratish ularni adabiy turlarga bo'lismash kabi oson va qulay emas. Ikkinchidan, janr tur kabi tizimli yoki uzoq vaqt muqim turmaydi, tarixiy kategoriya sifatida o'sib, o'zgarib, yo'q bo'lib yoki paydo bo'lib, boshqasi bilan birikib boradi. Uchinchidan, ijodkor asar yaratish ekan, unga mos shakl, janrnii tanlaydiki, bu janrnning mazmun-mundarijaga bog'liqligini ham ko'rsatadi. To'rtinchidan, lirik janrlar individual ko'rinish olishi mumkin.

**II. Metodologik asos.**

Mazkur muammo adabiyot nazariyasi nisbatan rivojlangan mamlakatlar, xususan, AQSH adabiyotshunosligida ham yetarli darajada hal etilmagan. Rene Uellek va Ostin Uorrenlar janrlar tarixini o'rganishdan ma'nii bormi yoki yo'qligi, asarlarni janrlarga bo'lishda shu paytgacha aniq, qat'iy me'yor belgilanmaganini tahlil etib quyidagi xulosaga kelishadi. "Shu tariqa janr muammosi ham adabiyotshunoslilik tarixi, ham tanqidda asosiy muammolardan biri sifatida ko'riladi. Bunda adabiyotshunoslilikning ikkala sohasi uchun o'zaro bog'liq hisoblanadi" [10,255]. Darhaqiqat, lirik janrlarning qat'iy chegarasi va alohida normalarini ishlab chiqarish imkonii murakkabligi sababli rus manbalarida ham ularni mavzu (sevgi, grajdani, falsafiy va peyzaj), meditativ (borliqning mangu muammolari ustida tafakkur qiladigan) va suggestiv (ishontiradigan, ta'sir etadigan), maishiy vazifalari (folklor lirikasi) bo'yicha bir nechta aspektlarda tasnif qilish tavsiya etilgan [5, 183-184].

"Aslida, ko'plab adabiy nazariyalar beixtiyor ma'lum bir adabiy janrnii ilgari surishadi va o'z talqin (xulosalar)ida shundan kelib chiqishadi. Asos sifatida olingan aniq adabiy shaklni belgilay turib mazkur jarayonni adabiyot tarixi nazariyasi orqali kuzatish qiziq bo'ladi" [15, 44]. Chunki janr zamon, millat, jamiyat badiiy-estetik taraqqiyoti talablari asosida ma'lum o'zgarishlarga uchraydi. Lekin janr sifatida o'zining o'zak muammolarida umuminsoniy tamoyillarni saqlab qoladi. Ya'ni lirikada istaymizmi yo'qmi shaxs botiniy olami, inson kechinmasi ifodalananadi. Botiniy olamda barcha insonda umumiylig ko'p bo'ladi. Har bir she'rl misolida undagi sub'ektivlik betakrorlik kasb etadi.

## ADABIYOTSHUNOSLIK

Lekin lirik “janrlarni tizimlashtirish va tasniflash qiyin, ular bunga qat’iy qarshilik qilişadi” [14, 284]. Buni E.Xalizev janrlar ko’pligi, ularni yagona tizim, tartibga solish qiyinligi, janr turli halqlarda o’ziga xosligi va tarixiy kategoriya ekanligi kabi qator omillar bilan izohlaydi. Ko’rinadiki, rus adabiyotshunoslida ham muammo echimini kutayotgan dolzarb muammolardan sanaladi.

### III.Muhokama va natijalar.

Mustaqillik yillarda o’zbek adabiyotshunoslida lirik asarlar tasnifi bir necha marta amalga oshirildi. Masalan, “Adabiy turlar va janrlar” asari ikkinchi jildining uchinchi bobo o’zbek lirik janri tasnifiga bag’ishlangan [1, 237]. Unda lirik turga kiritilgan asarlar dastlab mazmun jihatdan, so’ngra shakl jihatidan tasnif qilingan. Har ikkalasi ham o’z navbatida yana ichki bo’linishlarga ega. Unda folklor, musiqaga tegishli asarlar ham tasnifga tortilgan. Keyinchalik H.Umurov ham shunday yo’l tutgan: “1. Mazmun jihatidan: a) estetik belgi, pafos va muayyan mazmun yo’nalishiga asoslanadigan janrlar: marsiya, elegiya, invekti va, bahs, hasbi hol, soqynoma, topishmoq, qasida, muammo, ta’rix, xat, manzara, monolog, bag’ishlov, vasiyat, vasf, debocha, nazira, faxriya; b) asosan musiqiy asari hisoblansada, adabiy matnga ham suyangan janrlar: romans, kontata, marsh, syuita, qo’shiq, madhiya;

v) og’zaki va yozma lirikada qo’llanib kelingan janrlar: alla, yor-yor.

2. Shakl jihatdan: a) shakl mazmundorligi va tuzilishiga ko’ra lirika janrlari: aytishuv, mustazod, sonet, muvashshah, mushoira, shiru shakar, qit’a, g’azal, tuyuq, ruboij, masnaviy, fard, tarkiband, tarjiband, o’rama, shoiriy, tirada, turli bandli janrlar, oq she’r, sarbast; b) Misra soni va kompozitsiyaga ko’ra lirika janrlari: musallas, murabba’, muxammas, musaddas, musabba’, musamman, mutasaa, muashshar, to’rtlik, oktava; v) Qayta tashkil topish (transformatsiya)ga ko’ra lirika janrlari: qit’aiy, kesishgan, taronaiy, ruboiyona» [13, 227-228]. E.V.Xalizevning yuqorida keltirilgan janrlarning ko’pligi va ularni yagona tizimga solish ilojsizligi haqidagi fikrini inobatga olsak, mazkur tasnif ba’zi o’rinlarda o’zini oqlaydi.

Adabiy asarlarni tur va janrga bo’lishda “Adabiyot nazariya”sida “Lirikaning asosiy janrlari” faslida misra, bayt shakllari, g’azal, qasida, masnaviy, ruboij kabilar haqida ma’lumot berilgan, xolos[17, 178-179]. Bu zamonaviy lirik janrlar qatorini to’la qamrab olmaydi.

Lirik janrlar tasnifi haqida professor B.Sarimsoqov quyidagilarni yozadi: “Arastu poeziyani (adabiyotni) turlarga bo’lganda amal qilgan bosh prinsip mimessis, voqelikka taqlid qilish, uni qayta yaratish bo’lgan. Biroq mimessis oddiy o’xshatish emas. Ushbu tushuncha asosida: 1) voqelikni qayta, ichki idrok etish asosidagi inson ijodi; 2) bunday ijod esa ongli zot bo’lgan faqat inson tabiatiga xos; 3) shu xususiyati bilan u boshqa tirik mavjudotdan ajralib turadi; 4) insonga zavq beruvchi ijod; 5) mana shu xususiyat bilan inson dastlabki bilimlarini oladi; 6) inson aks ettirgan narsa yaxlit va fikrlashga undaydi; 7) umumlashtiradi; 8) anglab yetilgan; 9) qayta idrok yetilgan narsa; 10) u yoki bu nuqtayi nazar; 11) maishiy-betaraf; 12) obraz asosida yotgan voqelik (proobraz) kabi bir qator yaxlit olganda, real-voqelikka taqliddan yaratilishga olib boruvchi ijodiy jarayonning barcha talablari yotadi” [11, 300]. Ko’rinadiki, olim yaratilgan asarni turlarga ajratishning asoslarini ko’rsatadi. Ulardan deyarli barchasini, ayniqsa, “ichki idrok etish asosidagi inson ijodi”, “insonga zavq beruvchi ijod”, “dastlabki bilimlarini ol’ishi”, “inson aks ettirgan narsa yaxlit va fikrlashga unda’shi”, “umumlashtir”ishi, “anglab yetilgan”, “qayta idrok yetilgan narsa”, “u yoki bu nuqtayi nazar”, “obraz asosida yotgan voqelik” kabilarni kichik lirik she’rlarga ham joriy etish mumkin. Masalan,

Qor hidi dimoqqa urildi.

Uxlaydi shamolning qo’ynida

Barglarini to’kmagan rayhon[8,124].

Mazkur uchlikda shoir voqelikni badiiy qayta idrok etish, shu orqali dastlabki bilimni olishi, yaxlit holda qor ostida qolgan rayhonni umumlashtirib, uni ramziylikka olib chiqishi, obraz asosidagi shaxs turmush qorlari ostidagi odam ekanligini ochib bergan. Bu yerda qish topoxronosi qor, shamol detallari orqali ifodalangan. Chunki topoxronos makoniyligi detal va ularning vaqt bo’ylab harakatidan yuzaga chiqadi. Demak, shoir uchlik janrini ifodalashda qish topoxronosidagi voqeani uch misra va kompozitsiyaga joylashtirib ko’rsatgan. Zero, “makon va zamon, ularning xususiyatlari, o’ziga xosliklarining u yoki bu mualliflar, matnlar va janrlar yoki turlardagi asarlarda namoyon bo’lishi haqida so’z yuritganda makon va zamonni nazarda tutmaslik emas, balki makon-

zamonda joylashgan narsa va hodisalarning makoniy-zamoniy belgilarini ... va topoxronosning sub'ektiv restrukturatsiyasi (qayta tashkillangan – YU.Q.) nazarda tutiladi” [6, 658]. Shu ma'noda lirik janrda lirik topoxronosning alohida o'rni bor.

Professor D.Quronov ham “...hozirgi she'riyat janrlarini lirik kechinma sub'ekti va ob'ekti nuqtayi nazaridan tasniflash maqsadga muvofiq ekanligini ta'kidlaymiz. Bu jihatdan lirikaning asosiy janrlari sifatida ijroviy lirika, personajli lirika, meditativ lirika va tavsify lirika (va uning ko'rinishlari: peyzaj lirkasi va voqeaband lirika) farqlanadi” [16, 394], deb yozadi. Bu yerdagi “*lirik kechinma sub'ekti va ob'ekti nuqtayi nazaridan tasniflash*” deganda, bizningcha, lirik voqealikning makoniy-zamoniy belgilari ham nazarda tutilgan. Chunki lirik kechinma tashqi borliqdan, aniq makon-zamon yaxlitligidan turki olib, lirik sub'ekt botiniy makonida qayta tashkillanadi. Natijada lirik sub'ekt ichki olami (botiniy makoni)da o'ziga xos badiiy olam yaratiladi. Bunda kechinmaning tabiatli lirik sub'ektning badiiy-estetik ideali, dunyoqarashlari majmuiga ham bog'liq bo'ladi. Shuning bilan birga kechinma harakatida biz lirik qahramonni aniq ko'ramiz va angraymiz. Masalan, meditativ lirkaga mansub quyidagi she'rni olaylik:

Baxtiyorman degan birgina so'zni  
aytish kerak qancha kuch-chidam,  
garchi baxt so'zlarning eng yoqimligi,  
garchi tursa hamki tilning uchida.  
Og'ir botmasmikin  
bu so'z kimgadir,  
tegib ketmasmikin oh-vohlariga,  
qandoq bardosh berib yashayman keyin  
baxtsiz kimsalarning nigohlariga [9, 214].

Mazkur she'riy parchadagi kechinmalar orqali biz insonparvar, boshqa odamlarni ham baxtli, o'z maqsadlariga erishgan, ozod va erkin bo'lishini istagan, kishilar ko'ngliga qattiq tegib ketishdan parhez qiladigan kishini ko'ramiz. To'g'ri, bu yerdagi kechinma biografik xarakterda bo'lib, u individ sifatida birinchi galda asar muallifiga tegishli hisoblanadi. Uning yuksak ideali, yetuk axloqi va keng ma'naviy olami ifodalangan. Shuning bilan birga, jamiyatda hali o'zini baxtliman deb aytolmaydigan odamlar ko'pligiga ham ishora bor. Chunki oddiy odam bo'lib yashash ham o'z mohiyatiga ko'ra gumanistik g'oyalarga tayanadi. Shuning uchun boshqalarning holatini bilib, dardini o'zinikidek anglab yashash shartligini ko'rsatgan. Bu bir tomondan lirik obraz hayotini to'ldirolmaydigan va doimo uni qiy nab kelayotgan odam va odam, odam va olam munosabatlardagi muammolar tizimi bo'lsa, ikkinchi tomondan, shu yerda yashayotgan odam o'zini shu makon uchun mas'ul ekanligini his etish dardi ham mavjud. YUqoridagi she'rning keyingi qismi, bizningcha, nisbatan deklamatsion xarakterda bo'lib, unda ijod jarayonidagi borliqni estetik anglash, badiiylik nazariyasi, falsafa ilmiga xos konsepsiylar birlashadi. Bu birlashish, eng muhimmi, o'tayotgan vaqt, jamiyat va individdagi o'zgarishlar bilan birga kechadi. Ana shu, ayniqsa oxirgi, omillar natijasida she'rdagi kechinma o'sishi, obraz o'zgarishi, rivojlanishi, yanada yorqin namoyon bo'lishi kuzatiladi. Birinchi qismda biz real fidoiy insonni, komil shaxsni ko'ramiz. Keyingi qismida esa shoirlik faoliyatining dasturi, shoirning vatan oldidagi burchini ko'rsatishga harakat etilgandek taassurot uyg'otadi:

Avvalo bu so'zni o'zgalar aytsin,  
aytsinlar ko'zları sevinchga to'lib,  
elning baxti uchun umrini tikkan  
shoirlar aytmasin birinchi bo'lib.  
Bu so'zni bir umr aytmay yashadim,  
har shodlik kelganda yurdim sekinroq,  
Ham so'zin elimdan avvalroq aytdim,  
baxt so'zin aytaman eldan keyinroq.

She'rdagi mulohazalar bir qarashda balandparvoz gapdek tuyulishi mumkin. Biroq, “bu so'zni bir umr aytmay yashadim” misrasida biografik xususiyat namoyon bo'lib, unda shoirning hech bo'lmasa bir kunda bir marta bo'lsa-da, armonlari olovida qiynalayotgan odamni ko'rgani, baxtsiz kimsalarning oh-vohlari yetarli ekanligi ifodalangan. Shuning bilan birga halqimizda qadimdan shunday odat borki, o'z quvonchingni boshqalar g'amiga qo'shib yashash, boshqalar

## ADABIYOTSHUNOSLIK

diliga tegib ketmaslik uchun o'zini bosiqroq tutishlik haqida gap borgan. Bu she'r mazmuni milliy mentallikning ikki ulkan chegarasi va uning umuminsoniy ekanligi bilan uzviy bog'liq. Ijodiy jarayonda shoir xayoliga, qalbiga shunga o'xshash fikr-mulohazalar kelgan va ularning badiiy ifodasi sifatida yuqoridagi satrlar qog'ozga tushgan. Demak, lirik qahramon xarakterida yana bir qirrasi yuzaga chiqyapti. Bu – o'z hayotini tahlil qila bilish xususiyati bo'lib, buning uchun katta iroda kerak bo'ladi. Shu erda lirik kechinma inson hayoti degan topoxronos bilan birgalikda obrazning yorqinroq chiqishini ta'minlagan. Shoir o'z kechinmalarini asta-sekin rivojlantirib borar ekan, she'rning avvalgi qismida ilgari surilgan tezislarni, sintezgaga aylantira olgan. Shuning uchun asar yaratish jarayonini insonni badiiy jihatdan o'sib, rivojlanib borishining asosiy qismi deb hisoblash mumkin. Natijada she'rdagi obrazda ma'lum vaqt oralig'ida bir nechta xarakter qirralari yuzaga chiqqan. Boshqacha aytganda, obraz kechinmalar o'sib borishi va o'tayotgan vaqt ichida o'sib bormoqda. Zero, hamma narsa o'sib, o'zgarib boradi, jumladan olam ham ulkan makon sifatida borliqni qoplagan va cheksizdek tuyulsa-da, u ham o'zgarib boradi. Shuning uchun ijodiy jarayon haqli ravishda turli qismlarga ajratiladi. Bu she'rdagi lirik kechinmaning dinamik o'sib borishi va natijada obrazning xarakter qirralarining namoyon bo'lishida ko'rindi. Ana shu yerda lirikaning asl mohiyati ko'rindi. "O'zining amalga tatbiqini kechinma obrazda topgan, mustaqil ma'noga ega bo'lgan hissiy fikr so'z san'atidagi lirik turning asosi hisoblanadi. Asosi deyilishiga sabab mazkur materialdan ijod boshlanadi. Qalbning o'z-o'zini his etishi yoki shunga o'xshash, balki unda dastlab noaniq, g'aliz bo'lgan holat, qachonki u ifodalanganda, lirik kechinmaga aylanadi. Ifodalash esa, bu – hayotni tasavvurda tiklamoq va uni qayta yaratishga yo'naltirilgan, shuningdek, o'zida materialni mujassamlashtiradigan so'z san'atining unsuri bo'lgan ijodiy jarayon" [4, 407]. Demak, lirik janr asosi sifatida ko'rsatilgan kechinma va uning ifodasi she'rning janrini belgilari ekan, kechinmaning har bir shoirda yoki bir shoirning turli she'rlarida turlicha tabiatga egaligi ham uning janriga ta'sir etadi. Chunki shoir badiiy matnga olib kirgan topoxronoslar ham har bir she'nda o'zgaradi. Natijada tasvir ham turlicha chiqadi. Masalan, meditativ lirikaga mansub she'rni tahlil qilamiz:

Kelur qaydan, qayga ketgay bu oqim?

Qayda to'xtar, qayga yetgay bu oqim?

Ko'p chirandim,

Bildim – qutulmoq mahol,

Menligimni qayga eltar bu oqim? [7, 248]

Shoir ichki monolog usuli yordamida o'z ruhiyatidagi savollarni olib chiqadi, unda yirik ijtimoiy-falsafiy, ramziy ma'no mujassam bo'lib, ritorik so'roq orqali mazmunning ta'sirchanligi oshirilgan. She'r aslida an'anaviy to'rt shaklida bitilgan bo'lib, birinchi ikki satrda y tovushi, keyin "qay", "bu", "oqim" so'zlarining takrori, har ikkala misraning o'zaro qofiyasi (ketgan, yetgay) she'rga o'ziga xos ohangdorlik bag'ishlagan. Lirik sub'ektning yuragini, xayolini o'rtayotgan kechinma "oqim" topoxronosi orqali yuzaga chiqib, aniq maqsadlarni ifodalaydi. U bir vaqtning o'zida lirik sub'ekt yashayotgan makon va vaqtning anglatadi. U, avvalo, vaqt oqimi bo'lishi mumkin, ikkinchidan – fikrlar oqimi, uchinchidan – his-tuyg'u, kechinmalar oqimi, to'rtinchidan – jamiyatda biror yo'nalishga qarab birga harakat qilayotgan odamlar oqimi, beshinchidan esa lirik sub'ekt qalbidagi orzu-havas, intilish bo'lishi mumkin. She'rdagi oqim topoxronosi shoirob'ektiv qarashlari va sub'ektiv yondashuvini birlashtirgan hamda kechinmaning obrazga aylanishiga asos bo'lgan. She'rdagi ob'ektiv va sub'ektiv makon yuqori darajadagi uyg'unlikka erishgan, natijada esa avtopsixologik janrdagi she'r paydo bo'lgan.

"Tabiat – umuman osmon bilan yer, shuningdek, inson ham birgina havo bo'shilg'ida umr kechirmaydi, balki o'zligini ariqlar, daryolar, tepaliklar, tog'lar, vohalar, o'rmonlar, daralardan iborat muayyan makon bag'rida his etadi va faoliyat ko'rsatadi" [3, 208]. Ya'ni lirik she'rdagi makoniylar detallari shoir o'y-fikrlari mahsuli o'laroq sintezlashib, uning kechinmasi tabiatini aniqlashtiradi. Bu esa she'rdagi kompozitsiya, syujet va obraz munosabatlarini, ular yaxlitlashgan holda konkret janrni namoyon bo'lishiga xizmat qiladi. Natijada lirik she'rdagi voqelik aniq topoxronos detallari yordamida namoyon bo'ladi. Chunki kechinma (obraz) konkertlashishi uchun makoniylar detal va uning harakati lozim bo'ladi. Shuningdek, bunda she'riy nutqning o'rmini ham inkor etib bo'lmaydi.

Bir qarashda makon va zamon (“topoxronos” ham) kategoriyasi mavjudlikning umumiy belgisi sifatida har qanday asarning badiiyligini ta’minlaydi, deyish mumkin. Ammo atamalarni chuqurroq tahlil etilsa, makon (topos) va zamon (xronos) mustaqil leksik ma’noga ega ekanligi ko’rinadi. Chunki borliq mutloq mavjudlik sifatida e’tirof etiladi, ammo unga inson nigohi, e’tibori bilan qaralsa vaqt, zamon harakati sezildi. Demak, topoxronos inson omiliga borliq. (Shu yerda mental olam va undagi topoxronos, mental olam va real borliq munosabatlari, bu ikki mavjudlikning yaxlitligini ta’minlovchi topoxronos qanday, qay usulda namoyon bo’lishi hamda topoxronoslar tipologiyasi, topoxronos va badiiy matn strukturasi, badiiy anglam, topoxronos va konsept kabi masalalarni tadqiq etish kerakligi ko’rinadi.) Topos va xronos mustaqil leksemalar sifatida qo’llanadi. Ularning ma’nolari va vazifalari tutashadigan nuqta esa topoxronos bo’ladi. Ana shu tutash nuqtadan har qanday og’ish topoxronos ma’nosini o’zgartirib yuboradi.

Badiiy makon (topos) va badiiy zamon (xronos)ning o’zaro yaxlitligi, ular o’rtasidagi munosabat bilan belgilanadi. Lirik she’rda makon qaysi shaklda namoyon bo’lmashin asar mazmunini ifodalashga, shaklni tashkillashga xizmat qiladi. She’riy matnda gul, daraxt yoki osmon kabi makoniy unsurlar keltirilar ekan, ularga sub’ektiv yondashuv yuzaga keladi. Bunda matndagi so’zlar o’zaro munosabatga kirishib, o’z ma’nosidan ortib, zimmasiga qo’shimcha yuk olib, matn mazmunini harakatga keltiradi. Bu esa mavzu, g’oya, kechinma, muammo kabi mazmuniy komponentlarning ma’lum lirik syujetdagi harakati bo’ladi. Ular esa sub’ektiv obrazni namoyon etadi. Zero “badiiy obraz yaratish – badiiy ijod qilish ob’ektiv hamda sub’ektiv faktorlarning muayyan uyg’unlikda qo’shilishi hamda harakatidan iborat” [12, 13]. Bunda yaratilayotgan obraz statik ko’rinishda bo’lishi mumkin. Biroq, she’rdagi obrazning o’y-fikrlari, kechinmalari, tasvirdagi daraxtdan uzilib tushayotgan barg, olamga yoyilayotgan quyosh nurlari kabi jarayonlar lirik voqelikning dinamik xususiyatini ifodalaydi. Bu esa lirik she’riyatdagi asosiy topoxronos: anglangan hayotni, undagi lirik qahramonning ichki harakatini bildiradi. Masalan,

G’imir-g’imirlarga to’ladir hayot.  
sen qayoqqa ketayapsan, yo’lovchi?!  
Bir oz to’xta tin ol,  
Tingla g’aroyib bayot![12,73]

She’rda tiriklikning o’zi go’zal degan azaliy haqiqat hayotsevarlik g’oyasini ifodalaydi. Bu yerda hayot obrazi topoxronos bo’lib, u bir qarashda jim turgandek tuyuladi. Biroq birinchi misradagi “g’imir-g’imir” aniqlovchisi hayotning doimiy harakatiga ishora qiladi. Ijod jarayonining dastlabki bosqichida tashqi borliqdan akslangan predmet, ya’ni hayot tasviri ijodkor ijodiy laboratoriyasida hali obrazga aylanmasdan turib, real makon, ya’ni tashqi borliq aksi sifatida mavjud, xolos. Shu yerda ijodkorning idroki ishga tushadi va o’sha akslangan predmetga o’ziga xos go’zallik, badiiy-estetik yuklamalarini yuklab, uni obrazga aylantiradi. Go’zallik bu yerda klassik ko’rinishdagi inson tirikligi, mavjudligining o’zi go’zallik, degan tamoyil asosida tushuniladi. Fikrni rivojlantirib aytish mumkinki, dunyoning qaysidir burchagida oddiy insonlik, o’zining ezgu orzu-umidlari yo’lidagi tashvish, yumush bilan band bo’lish baxti hammaga ham nasib etmayotgan davrda “g’imir-g’imirlarga to’la hayot”ni kuzatish kishiga zavq, shavq beradi. Qayergadir shoshayotgan odamlar, tog’liklardan erib, soylarni to’ldirib oqib, dasht u dalalarga intilayotgan suv, qushlarning chug’urlashib goh yerga, goh daraxt shoxlariga qo’nishi, quyoshning sekin-astalik bilan dunyo bo’ylab yoyilayotgan nurlari, shoir ta’kidlagandek, “g’aroyib bayot” hisoblanadi. To’g’ri, ijodkorning asarga qo’ydigan badiiy-estetik yuklama – bu ijodkorning o’zi anglagan yetuk falsafiy-hissiy kechinma va g’oyalalar bo’lishi mumkin. Shu erda obraz voqelikni anglovchi obrazga aylanadi va she’rga ko’chadi. E’tibor qilingan she’rdagi hayot obrazini yaratishda sub’ektiv va ob’ektiv olam unsurlari birliddagi faoliyati haqida so’z boryapti. Go’zallikni anglash, uni bayot ekanligini tushunish sof sub’ektivlik bo’lsa, ana shu sub’ektivlilikni anglagan lirik personaj va harakatdagi yo’lovchini ob’ektiv olam vakili deyish to’g’ri bo’ladi. Bu ikkisining birligi, deganda esa badiiylik tushuniladi. Bu yerda shakl va mazmun, makon va vaqt yaxlit holda namoyon bo’lyapti. Aslida haqiqiy badiiy asar mana shunday bo’ladi. Janr nuqtayi nazaridan she’r tavsifiy lirikaga mansub bo’lib, unda lirik voqelikga ta’rif-tavsif berilishi yetakchilik qilgan. Lirik sub’ekt hayot, yo’lovchi, bayot detallari va ularga berilgan turli metafora, epitet, ta’riflar orqali oniy kechinmani yorqin lirik tasvirga aylantirib, go’zal hayot kartinasi (topoxronos)ni namoyon etgan. Undagi uch detallardan birini olib tashlansa, topoxronos o’zgaradi, bu esa she’rni tavsifiylikdan meditativlikka yoki ijroviylikka o’tkazib yuboradi.

## ADABIYOTSHUNOSLIK

Masalan, yuqoridagi she'rning asosiy detal-toposlarini saqlagan holda qayta shakllantirish orqali fikrimizni isbotlashimiz mumkin:

Qayoqqadir ketayotgan yo'lovchi,  
to'xtadi, tin oldi bir oz,  
Tingladi g'aroyib bayot!  
Unutildi  
g'imir-g'imirlarga to'la hayot.

Mazkur she'rda avvalgi she'rning asosiy detallari saqlandi, lekin voqelikka munosabat o'zgardi. Natijada go'zal hayotni anglagan, his etgan lirik sub'ept emas, balki yo'lovchi bo'lib, she'rda uning ruhidagi o'zgarishlarni ifodalamoqda. Natijada ijroviy lirikaga aylandi. Chunki lirik sub'ept topoxronos sifatida o'z o'rnini yo'lovchiga berdi. U esa ob'ektiv olamda aks etgan. Demak, she'rdagi topoxronos janrni ifodalashga ham xizmat qilmoqda.

### IV. Xulosalar.

1. Lirik she'r janrini belgilashda badiiy makon-vaqt kategoriyasi ham o'z o'rniga ega bo'lib, she'r u yoki bu lirik voqelikni shoir tomonidan konkret makon-vaqtdagi badiiy ifodasida yuzaga chiqadi.

2. Lirik she'rlarni janrlarga ajratishda undagi lirik kechinma tabiat, voqelikning ifodasidan kelib chiqish bilan birga she'r hajmiga ham e'tibor qilish lozim bo'ladi.

3. Shoir o'z botiniy olamidagi teran anglamnihaqat shtrixlarinigina matnga aylantiradi. Bunda lirik voqelikning muhim detallari badiiy kod sifatida she'rda ko'rindi. Shuning uchun she'rdagi har bir obraz,detal bir nechta badiiy-estetik yuklama oladi.

## ADABIYOTLAR:

1. Adabiy turlar va janrlar. Lirika (Tarixi va nazariyasiga oid). Uch jildlik. Ikkinchchi jild. – T.: Fan, 1992. (Литературные виды и жанры. Лирика (по истории и теории). Три тома. Второй том.)
2. Ali, Tursun, Lahzalar suvrati: – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodi yui, 2016. (Фото Али, Турсун, Лахзалар: - Т.: Издательство Гафур Гулям)
3. Gegel, Georg Vilgelm Fridrix. Estetika yoxud san'at falsafasi yoxud badiiy ijod falsafasi. 1-jild. M.Abdullaev tarjimasi. – F.: 2011. (Гегель, Георг Вильгельм Фридрих. Эстетика или философия искусства или философия искусства)
4. Kollektiv. Teoriya literatury. Tom III. Rody i janry (osnovnye problemy v istoricheskem osvetschenii).— M.: IMLI RAN, 2003. (Collective. Theory of literature. Tom III. Childbirth i janry (basic problems v istoricheskem osvetschenii)
5. Literaturnyy ensiklopedicheskiy slovar. / Pod obsh. red. V.M. Kojevnikova, P.A. Nikolaeva. – M.: Sovetskaya ensiklopediya, 1987. (Literary ensiklopedicheskiy slovar. / Pod obsh. red. V.M. Kojevnikova, P.A. Nikolaeva. – M.: Sovetskaya ensiklopediya)
6. Nikitin M. V. Kurs lingvisticheskoy semantiki: Uchebnoe posobie. — 2-e izd., dop. i ispr. — SPb.: Izd-vo RGPU im. A. I. Gersena, 2007. (Nikitin M. V. Course of linguistic semantics)
1. Obidjon, Anvar. Saylanma. – T.: Akademnashr, 2017.
2. Rauf Parfi. So'nggi vido. – T.: O'zbekiston milliy kutubxonasi, 2006.
3. Rahmon, SHavkat. Abadiyat oralab: she'rlar. – T.: Movarounnahr, 2012.
4. Rene Uellek, Ostin Uoren. Teoriya literatury. – M.: Progress, 1978.
5. Sarimsoqov B. Adabiy turlar haqida mulohazalar./ O'zbek adabiy tanqidi: [antologiya] / tuzuvchi va nashrga tayyorlovchi B.Karimov. – T.: Turon-Iqbol, 2011.
6. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. – T.: TAI, 2004.
7. Umurov H. Adabiyot nazariysi. – T.: SHarq, 2002.
8. Xalizev E.V. Teoriya literatury. – M.: Vysshaya shkola, 1999.
9. Eagleton, Terry, Literary theory: an introduction. – Minneapolis, USA: The University of MinnesotaPress, 2003.
- 302 p.<http://www.upress.umn.edu>
10. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. –T.: Akademnashr, 2018.
11. Sulton, Izzat. Adabiyot nazariysi. – T.: O'qituvchi, 2005.